

FARZAND TARBIYASI-PEDAGOGIK NUAMMO SIFATIDA

Feruza Turakulova Aminovna

Qo`qon davlat pedagogika instituti katta o`qituvchisi

Parmonova Feruza

Qo`qon davlat pedagogika instituti 4-bosqich sirtqi bo`lim talabasi

Abdullayeva Zumrad

Qo`qon davlat pedagogika instituti 202-bosqich talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada farzand tarbiyasi, ota-onaning farzand tarbiyasidagi roli va vazifalari, farzandning ota-ona oldidagi burchi hamda bolani oiladagi òrni, bola tarbiyasi orqali davlatning rivojlanishi hamda yoshlarni oila orqali jamiyatga kira olishi haqida sòz boradi.

Kalit sòzlar: ota-ona, davlat, jamiyat, rivojlanish, oila, farzand tarbiyasi, mutafakkirlarning fikrlari, burch, solih farzand

Farzand tarbiyasi bugungi kunda global darajasigacha ko`tarilgan muammolardan biriga aylangan jarayon sifatida tan olinmoqda. Farzandni iymonli, insofli, elparvar, mehnatsevar etib tarbiyalash ota-onaga berilgan baxtdir,- deb hisoblab kelgan xalqimiz.

Payg`ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: «Men sizlarga go`zal xulqlarni tamomila o`rgatish uchun Payg`ambar qilib yuborildim», – deb bejiz aytmaganlar.

Hamma baxt go`zal axloqda. Shuning uchun ham Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Hech bir ota-ona farzandiga go`zal xulqdan ko`ra foydaliroq biror narsani meros qoldira olmaydi», deganlar. Zero, qadimdan solih insonlar farzand tarbiyasiga katta e'tibor bilan qarashgan. Chunki millatning taraqqiyoti yoki zavoli yoshlarning tarbiyasiga bog'liq.

Rasululloh (a.s.) goho yosh bolalar bilan o'ynab, ularni erkalatib kuldirar va yuzlaridan o'par edilar. Ya'lo ibn Murro rivoyat qiladilar: Ya'lo aytadilar: “Biz bir ziyofatga chaqirilganimiz sabab Rasululloh (a.s.) bilan u yerga ketayotgan edik. Birdan Husaynni yo'lda o'ynayotganini ko'rib qoldik. Shunda Rasululloh (a.s.) Husaynni ushlamoqchi bo'lib ikki qulochlarini ochib u tomon tezladilar. Shunda Husayn u yoqdan bu yoqqa qocha boshladi. Rosululloh (a.s.) esa uning kulishlariga sherik bo'ldilar va uni tutib olib, bir qo'llarini uning jag'iga, ikkinchi qo'llarini esa uning boshiga qo'ydilar, so'ng uni mahkam quchoqlab olib bizning oldimizga olib keldilar”.

Bundan tashqari, U zot (a.s.) bolalarga ta'lim va tarbiyani ham go'zal holatda berganlar. Umar ibn Abu Salama aytadilar: “Yoshligimda Rasululloh (a.s.)ning qaramog'ida u zotning xizmatlarini qilib yurar edim. Kunlarning birida u zot bilan ovqatlanib o'tirar edik. Mening qo'lim tavoqning u yog'idan bu yog'iga borib kelar edi. Shunda Rasululloh menga qarab: “Ey bola, Bismillahni ayt va o'ng qo'ling bilan o'z oldingdan ovqat yegin”, dedilar (Imom Buxoriy va Muslim rivoyati).

Insonga berilgan ne'matlar ichida farzand eng ulug'laridan biridir. Shunday ekan, farzand tarbiyasga e'tiborsiz bo'lish – Alloh bergan ne'matga noshukrlik qilishdir. Farzandiga yoshligidan ilmu ma'rifat berib, imon-e'tiqodli qilib tarbiya qilgan insonning farzandlari ota-onasiga dunyo va oxiratda yaxshilik olib keladi. Buning aksi bo'lsa, ularga hasrat va nadomat bo'ladi.

Buyuk vatandoshimiz shayxur rais Abu Ali ibn Sino yosh avlod tarbiyasining ibtidosi qanday va nimalar bilan bo'lishi haqida quyidagilarni aytgan edi: «Yosh bola boshlang'ich ta'lim va tilga doir qoidalarni yod olganidan keyin u mashg'ul bo'lishi mumkin bo'lgan kasb-hunar va san'atga moyilligiga qarab, uni shunga yo'llaymiz. Agar u kotiblikni xohlasa, til, xat yozish, nutq so'zlash va odamlar bilan muomala qilish kabilarga dalolat qilamiz. Albatta, bu o'rinda, bolaning mayli ahamiyatga ega» («Islomiy tarbiya va uning falsafasi». Muhammad Atiya, 197-bet).

Tarbiya haqida Imom G'azzoliyning «Ihyou ulumud-din» kitobida bunday deyiladi: «Bola ota-ona qo'lida bir omonatdir. Qalbi turli naqsh va rasmlardan pok, nima naqsh solinsa, qabul qiladi, nimaga moyil qilinsa, moyil bo'laveradi. Agar yaxshilikka undalsa va o'rgatilsa, uning ustida o'saveradi, dunyo va oxiratda saodatli bo'ladi, ota-onasi hamda odob, ta'lim-tarbiya berganlar barchasi savobiga sherik bo'lishadi. Agar yomonlikka undalsa va hayvon kabi bo'sh qo'yilsa, yomonlikka uchraydi, halok bo'ladi va unga qarab turgan kishi zimmasiga gunohkorlik tushadi».

Islom ta'limotida ham ilm orqali tarbiyalashga undalgan. Jamiyatimizda uchrayotgan ko'ngilsiz holatlar, illatlarning tub ildizi ilmsizlikka borib taqaladi. Ilm xoh dunyoviy, xoh diniy bo'lsin, u insonga juda zarur. Ilmli farzand qalbida iymon mustahkam bo'ladi, yaxshini yomondan, oqni qoradan ajrata biladi. Yomonlarga qo'shilib ketmaydi. Hayot qiyinchiliklari, sinovlari oldida juda tez taslim bo'lmaydi. Shu bois farzandlarimizni ilm olishga undash har biro ta-onani burchi sanaladi. Kasb-hunarga o'rgatish, oliy ma'lumotli qilish ota-onalarning eng oliy orzusi sanaladi. Zero, farzand dunyosi va oxirati uchun o'ziga zararli bo'lgan qabohat, razolat, jaholatdan ogoh bo'lmoqligi uchun undan ilm, ma'rifat, tafakkur talab etiladi. Payg'ambar sollallohu alayhi va sallam: «Bir soatlik tafakur bir yillik (nafl) ibodatdan yaxshiroqdir», deya ummatlarini ilm olib, tarbiyalanib, tafakkur va tadabbur ila hayot kechirishga choralaganlar.

Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish joiz: har bir inson o'z farzandi yaxshi, barkamol nasl bo'lib yetishishini orzu qiladi. Katta bo'lgach, jamiyatda o'ziga munosib o'rin egallab, Vataniga sodiq, elu xalqining xizmatiga tayyor, vijdonli va diyonatli bo'lishini niyat qiladi. Zero, ilmli, axloqi tarbiya topgan insonlar yashaydigan oila, jamiyatda doimo obodonchilik, rivojlanishlar bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. U.Alimov. Oilada farzand tarbiyasi. Muslim. Uz. 2019
2. Jamoa. Oila pedagogikasi. T., «Aloqachi», 2007

3. M.Imamova. Oilada bolalarning ma`naviy axloqiy tarbiyasi — T.
“O’qituvchi”. 1999

